

TEXNIKA OLIY O'QUV YURTLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MASALALARI**Abdullayeva Muxtasar Akmaljon qizi****(PhD) abdullayevamuxtasarxon91@gmail.com,****FDTU, Energetika muhandisligi kafedrası****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17586830>**


Mutaxassislik fanlar talabalarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, chuqur kasbiy bilimlarni egallashning asosiy omili hisoblanadi. Bu ularga to'g'ri ma'lumotni noto'g'ri ma'lumotdan ajratish, nazariyalarni tushunish, o'z g'oyalarini yaratish va asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Taxsil olgan yo'nalishi bo'yicha mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega mutaxassis, mehnat faoliyati yurgizayotgan ish joyida, korxonaning ish samaradorligini o'sishi va rivojlanishiga xizmat qiladi, aksi esa, ish unumdorligini o'sishini sustlashtiradi. Bundan ma'lumki keng jamiyat, ishlab chiqarish umuman olganda, innovatsion rivojlanish bosqichidagi har bir mamlakat malakali va qobiliyatli kadrlarni talab qiladi. Mana shu muxim masalaga yechim, avvalo ta'lim jarayonlarida talabalarni mutaxassis sifatida qanday yondoshuv asosidagi shakllantirishga bog'liqdir. O'qitish jarayonlarida, ta'limning turli shakllaridan bir qancha davrdan boshlab faoliyat yurgizib kelinayotgan bo'lsa, boshlang'ich o'qitishning usullari hozir ham mavjud.

Ta'lim jarayonlarida o'qitishning an'anaviy usullari XIX asr boshlaridan kiritilgan usullardan bo'lib, bu jarayonlarda o'qituvchi nutq yoki sharoitdan kelib chiqib, mavjud ta'minotdan foydalangan holda, o'zi o'qigan va o'zida mavjud bilim-ko'nikmalariga ko'ra bilim beruvchi, talaba esa faqat berilgan bilimlarini qabul qilish imkoniyatlaridan kelib chiqib, qabul qiluvchi sifatida ishtirok etib kelgan [4]. Ayni vaqtga kelib ta'lim sohalarida, o'qitishni yangi pedagogik usullar asosida olib borish turlaridan unumli foydalanish rivojlanib bormoqda va aynan zamonaviy davr ham, ta'lim tizimlariga maqsadni shunday talab bilan qo'yimoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasi, ta'limga, yangicha yondoshuv sifatida kirib keldi. Boshlang'ich davrlarda pedagogik texnologiya va ta'lim texnologiya atamaları bir turda qo'llanilib, o'quv jarayonlarida texnik vositalardan foydalanishni nazarda tutgan. Texnologiya tushunchasi san'at, mahorat ma'nolarini hisobga oladigan bo'lsak, pedagogik texnologiya qo'shilib, o'qitish jarayonlarini sa'nat, mahorat va texnika bilan boshqarish tushuniladi. Ta'limga pedagogik texnologiyalar asosida yondoshuv, talabalarida bilim qabul qilish imkoniyatlarini yanada kengayishiga sabab bo'ladi. Shu tufayli, ushbu sohalarida pedagogik texnologiyalarning o'rni sezilarli bo'lib, bu o'qituvchi oldiga pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish zarurligini qo'yadi.

Ta'lim jarayonlarida oldinga qo'yilgan maqsad, albatta, malakali kadrlar yetishib chiqishi bilan bog'lanadi. Har bir yo'nalish bo'yicha mutaxassis kadr o'ziga tegishli yo'nalishlarda mehnat faoliyatini olib boradi. Har bir bitiruvchi mutaxassis olgan bilimni aynan, ish joyida ko'rsatadi. Buning uchun esa, tegishli yo'nalishda ta'lim berish borasida, ixtisoslik fanlarini o'qitishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Boisi, mutaxassislik fanlaridan olgan bilim-ko'nikmalari bitiruvchini mehnat faoliyatiga bog'laydi. Bu borada texnika fanlarini o'qitish jarayonlari, ayni vaqtda pedagogika sohalarining yuqori qatorlari egallab, o'qitishning aynan texnika fanlariga mo'ljallangan metodlarini yaratish va mavjudlaridan samarali foydalanish masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqotchilarga katta vazifalarni yuklamoqda. Negaki, bugungi kunda mavjud o'qitishning pedagogik texnologiya va usullarining asosiy soni, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishga moslashgandir. Mutaxassisliklar bo'yicha o'qitiladigan kasbiy fanlarni talaba-yoshlarga singdirishga alohida yondoshuvlar asosida tashkil etish, har bir fanning ishlab chiqarishdagi

ahamiyati, o'rni muhimligini tushuntirish, talaba mehnat faoliyatiga tayyor kadr bo'lib borishligini anglab yetishi uchun kerakli sharoit va muhitni yaratish kerakdir [30;26-b]. Buning uchun avvalo, oliy ta'limda tahsil olishni boshlagan talabaga yo'nalishi, ertangi kun uchun qanday soha mutaxassisi bo'lib yetishib chiqishi, kelajakdagi mehnat faoliyati bo'lajak muhandislarga qanday talablarni qo'yishini avvaldan anglab yetishi darkor. Shundagina, ayni davrda texnika oliy o'quv yurtlari texnika yo'nalishi talabalarida uchrab turgan quyidagi muammolarga boshlang'ich yechim bo'lib xizmat qiladi. (1-rasm)



1-rasm. Texnika yo'nalishi aksariyat talabalarida mavjud muammolar

Ta'lim jarayonlarida mavjud muammolarni oldindan anglab, yechim izlash va amaliyotga joriy etish ta'limda sifat masalalarini yanada yuqori baholash darajasiga olib chiqadi. Texnika yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarda yana bir muammo sifatida, horijiy tillarni yaxshi o'zlashtirmaganliklari tufayli, horijiy adabiyotlarni o'zlashtira olmasliklaridir. Qachonki abituriyent oliy o'quv yurtida talaba bo'lishni, qaysi mutaxassislikni tanlashni shaxsan o'zi mustaqil fikr va bilim salohiyatidan kelib chiqib tanlamaguncha, yuqorida ko'rsatilgan muammolar paydo bo'laveradi. Ta'lim jarayonining esa maqsadi bitta - sifatli kadr tayyorlash bo'lib, mavjud muammolarni doimiy o'rganib borish, tegishli chora - tadbirlar amalga oshirishni oldiga vazifa etib yuklaydi. Bu jarayonning ishtirokchisi bo'lgan har bir pedagog o'z ustida doimiy ishlashi, ta'lim jarayonlarida o'qitish samaradorligini oshirish masalalarida faol ishtirok etishi joizdir. Bu borada ta'lim sohalari, ertangi kun uchun zarur yo'nalishlarga mos kadrlar tayyorlashini hisobga oladigan bo'lsak, mavjud ta'limdagi barcha yo'nalishlarda o'qitish jarayonlariga o'ziga mos ravishda yondoshish kerak. Shular qatorida texnika yo'nalishlariga ham. Mamlakatimizda texnika va energetika masalalari shu darajada jadal rivojlanib bormoqdaki, bu borada ta'lim ham ortda qolmay, oldinda yurishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. B. Elov, A. Dauletov, Y. Sucharitha, F. Khalilova, M. Latipova and M. Abdullayeva, "An

- Intelligent Traffic Management of Vehicles using Deep Learning Approach in Smart Cities," *2025 3rd International Conference on Integrated Circuits and Communication Systems (ICICACS)*, Raichur, India, 2025, pp. 1-5, doi: 10.1109/ICICACS65178.2025.10967703.
2. Abdullaeva.M.A. (2022). IMPROVEMENT OF TRAINING OF SEMICONDUCTOR RELAY PROTECTION DEVICES BY NEW INTERACTIVE METHODS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(10), 28–33. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crijp-03-10-05>
2. N. Akramova, S. Akhmedov, M. Mukhtorova, F. Nasretdinova, M. Abdullayeva and D. Dhabliya, "Leveraging Deep Learning for STEM Education in Higher Secondary Grades," *2025 World Skills Conference on Universal Data Analytics and Sciences (WorldSUAS)*, Indore, India, 2025, pp. 1-6, doi: 10.1109/WorldSUAS66815.2025.11198997.
3. N. Abdullayeva, A. Gofurova, M. Abdullayeva and D. Dhabliya, "Designing AI-Enhanced Educational Games for Cognitive Skill Development," *2025 World Skills Conference on Universal Data Analytics and Sciences (WorldSUAS)*, Indore, India, 2025, pp. 1-6, doi: 10.1109/WorldSUAS66815.2025.11199084.
4. Abdullayeva M. Development of new interactive methods suitable for teaching semiconductor relays //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 452. – C. 03015.
5. Muxtasar Abdullayeva, Texnika fanlarini samarali o'zlashtirishda mustaqil ta'limning ahamiyati. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi № 9 -son, 2023/12/15. 559-564